

**MARKAZIY OSIYODA EFTALIYLAR DAVLATI VA TURK
XOQONLIGI DAVRIDA YER-SUV MUNOSABATLARI**

Amonkeldi Axmatov

BuxDU Juhon tarixi kafedrasi dotsenti, PhD

Feruz Sobirov

BuxDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda eftaliylar davlati va Turk xoqonligi davrida yer-suv munosabatlari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Arxeologik topilmalar, tarixiy ma'lumotlar va geografik tahlillardan foydalangan holda, ushbu o'rta asr davlatlari suv resurslarini qanday boshqarganligi va ular bilan o'zaro aloqada bo'lganligi, ularning iqtisodiyoti, jamiyatlari va siyosiy tuzilmalarini shakllantirganligi haqida ma'lumot beradi. Tadqiqot ushbu qadimiy sivilizatsiyalarning gidrologik dinamikasini va ularning mintaqadagi resurslarni boshqarishning zamonaviy tushunchalariga ta'sirini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'rta osiyo, Eftallar davlati, Turk xoqonligi, yer-suv munosabatlari, gidrologiya, arxeologiya, tarixiy geografiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются земельно-водные отношения в Средней Азии во времена эфталитского государства и Тюркского каганата. Используя археологические находки, исторические данные и географический анализ, эти империи предоставляют информацию о том, как они управляли и взаимодействовали с водными ресурсами, формируя свою экономику, общества и политические структуры. Исследование направлено на освещение гидрологической динамики этих древних цивилизаций и их влияния на современные концепции управления ресурсами в регионе.

Ключевые слова: Средняя Азия, государство эфталитов, Тюркский каганат, земельно-водные отношения, гидрология, археология, историческая география.

Annotation: This article explores Land-Water relations in Central Asia during the ephthalite dynasty and the Turkish Khaganate. Using archaeological finds, historical data, and geographic analysis, these empires provide insight into how they managed and interacted with water resources, shaping their economies, societies, and political structures. The study aims to highlight the hydrological dynamics of these ancient civilizations and their impact on modern concepts of Resource Management in the region.

Keywords: Central Asia, ephthalite state, Turkish Khaganate, Earth-Water relations, hydrology, archaeology, historical geography.

KIRISH

Ziroatkor yerlarning kattagina qismi hali ham qishloq jamoalari tasarrufida bo'lsa-da, ammo mamlakatda feodal munosabatlarining tarkib topishi oqibatida yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor tabaqa vakili - «dehqon»lar qo'lida to'plana boshlagan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qo'shchilari ma'lum darajada dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram kadivarlargaga aylanishgan edi. Obikor yerlarning bir qismi ibodatxonalar mulki hisoblanar edi. Bunday yerlar «vag'nze» deb yuritilar edi.

Yaylovlarning asosiy qismi esa qabila va urug' jamoalari hamda ularning oqsoqollari - biylar tasarrufida edi. Hozirgi vaqtida Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlab turgan Zog'ariq va Bo'zsuv, Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbai Darg'om kanali V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan hisoblanadi. Bu davrda tog' oldi mintaqalarida joylashganadir yerlarga suv chiqarib, obod etishda o'q, gupchak, tishli g'ildirakka asoslangan va o'z davri uchun ancha-muncha murakkab suv inshootlari charxparrik, chig'ir va boshqalardan foydalaniladi.

ADABIYOT TAHLILI

Yangidan o'zlashtirilgan yerlarda mulkdor dehqonlarning yirik qo'rg'onlari-yu, hashamatli qasrlari bilan bir qatorda mehnatkash qo'shchilarning ko'pdan-ko'p qishloqlari-yu mayda turar joylari qad ko'taradi. Xuddi shu davrda Chag'oniyo (Surxondaryo), Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naqshab (Qarshi) va Toshkent atroflari to'la o'zlashtirilib, alohida-alohida dehqonchilik vohalari shakllanadi. Keyinchalik bu vohalarda yerdor dehqonlarning siyosiy mavqeyi oshib, ilk o'rta asrlarning mayda hokimiyatlari tashkil topadi.

Aholining ommaviy hashari va mashaqqatli mehnati bilan suv chiqarilib obod qilingan vohalarni tashqi yov bosqinlaridan muhofaza qilish maqsadida ularning tevarak-atrofi bir necha o'n va yuz chaqirimplarga cho'zilgan baland va qalin devorlar bilan o'rab olinadi. Ilk o'rta asrlarning bunday mudofaa inshootlari ko'rinishdan qadimgi Buyuk Xitoy devoriga o'xshar edi.

TADQIQOT USULLARI

Ushbu tadqiqot arxeologik, tarixiy va geografik usullarni birlashtirgan multidisipliner yondashuvni qo'llaydi. Suv manbalari infratuzilmasini aniqlash uchun qazish joylaridan olingan arxeologik dalillar tahlil qilinadi, tarixiy matnlar va yozuvlar eftalit va turk hukmdorlarining suv resurslariga nisbatan siyosati va amaliyoti to'g'risida ma'lumot beradi. Geografik tahlil mintaqaning tabiiy gidrologik xususyatlarini va ularning aholi punktlariga ta'sirini tushunish uchun o'tkaziladi.

NATIJALAR

Eftaliylar davrida dehqonchilik asosan sug'orma dehqonchilikka asoslangan edi. Qadimgi ziroatkorlar katta va kichik daryolar, jilg'a suvlaridan foydalanishgan. Bunday


sharoitda kanallar qazish va ularni mavsumiy tozalab turish muhim ahamiyat kasb etgan.Vaxsh vohasidan, Ustrushonadan , Sug'ddan,Xorazmdan va Toshkent vohalaridan shunday kanallarning izlari topib o'rganilgan.V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftaliylarning o'troqlashuvi kuchaydi va buning natijasida sug'orma yerlarga bo'lган ehtiyoj ortadi.Kichik-kichik sug'orish kanallari qazib chiqarilib minglab gektar yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi.Shuningdek,tog' oldilariga suv chiqarish uchun suv chiqarish asboblaridan keng foydalanilgan.Yangi o'zlashtirilgan yerlarda zodagon dehqonlarning qalin xom g'ishtdan urib chiqarilgan hamda baland poydevor ustiga qurilgan ulkan qo'rg'onlar , istehkomlar yuzaga kela boshlagan. Tohariston va Sug'dda dehqonchilik bilan birgalikda bog'dorchilik ham rivojlangan.Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan . Xitoy manbalarining ma'lumot berishicha, V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyoda ikkidaryo oralig'i yerlarida ko'plab paxta yetishtirilgan edi .O'rta Osiyoning paxta tolasi Xitoyda ham mashhur bo'lgan.

Turk xoqonligi qo'li ostida birlashgan xalqlar taraqqiyotning turli bosqichlarida bo'lganlar, aholining bir qismi o'troq dehqonchilik bilan, qolgan bir qismi esa ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Sug'diyona, Xorazm va Toharistonda dehqonchilik qiluvchi aholining kattagina qismi patriarchal oila sifatida yashar edilar. Erkin dehqon bilan bir qatorda kashovarzlar ham bor bo'lib, ular iqtisodiy jihatdan boy yer egasiga va hatto o'z mustaqilligini saqlab qolgan dehqonga ham qaram bo'lganlar. Kashovarzlar jamiyatdagi asosiy kuch hisoblangan. VI-VII asrlarda, qishloq, qo'rg'on va shaharlarda mustahkam o'rnashib olgan, yer egasi bo'lgan zodagonlarning iqtisodiy va siyosiy quvvati kuchaya boshlaydi. Bu zamindor zodagonlar yozma manbalarda «dehqonlar» deb yuritilgan. Xususan konlarda va yer ishlarida qul mehnatidan ko'proq foydalanilgan. Bu davrda Xorazmda va ayniqsa, Sug'dda savdogarlar jamiyatda yetakchi o'rinni egallaganlar.

Turklarda ovul xo'jaligi tizimi bo'lib , bu tizimda har bir oila o'zining aniq belgilangan qishloq va yeriga ega bo'lgan va iqtisodiy birligi juft oila hisoblangan.Yana boshqa bir tizim mavjud bo'lib, u chayla deb atalgan.Bunda ko'plab oilalar birgalikda ko'chadi va kechasi qarorgohni aravalari, posbonlar bilan o'rab oladi.Bu ikki tizim asrlar davomida bir-biri bilan almashinib kelgan va urug'chilik tizimining mustahkamlanishi yoki tannazzuli bilan bog'liq bo'lgan emas.Turklar 641-yilda Alashanga ko'chadilar,bu yerda "yaylovlar keng,tuprog'i unumdor bo'lgani uchun turklar ancha tortishuvlar bilan bo'lishib olishdi.L.N.Gumilyovning 1948-yilda Oltoyda olib borgan arxeologik izlanishlar ham ko'rsatadiki ,turklardan qolgan yodgorliklar ayrim yaylovlar va daryo sohillar bo'y lab guruhanish, o'sha davrlarda ovul tizimidan boshqa biror tizimda yerdan foydalanish bo'lganligi haqida o'ylashga ham imkon bermaydi.B.Ya.Vladimirsov aytadiki:kuren tizimi xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur edi, shuning uchun ham ovul tizimi dashtda qudratli hokimyat paydo

bo'lib, talonchilik va qabilalararo urushlarga barham bergan davrlarda mavjud bo'lgan.

Ko'chmanchi turk qabilalari VI-VII asrlarda o'tovlarda yashaganlar va to'rt g'ildirakli aravalarda ko'chib yurganlar. Aholining mehnatkash qismi «budun» yoki «qora budun» deb atalgan. Urug'-qabilaning yirik vakillari esa «beklar» nomi bilan yuritilgan. Jamoani «xoqon» va zodagonlar kengashi - «qurultoy» boshqargan. Patriarxal oilalarga oila boshliqlari - «kadxdudotlar» bosh bo'lganlar. Kadxdudot atamasi sug'diylargacha xos so'z bo'lub, ko'chmanchi hayat kechiruvchi turklar esa «Kadxdudot» so'zi o'rniga «Arxaun» atamasini ishlatar edilar



1-rasm. Xorazm vohasida milodiy III - VI asrlardagi sun'iy sug'orish rivojlanishining xaritasi. *Shartli belgilari:* a – suv oqib turgan kanallar; б – Amudaryoning o'sha davrdagi o'zani; в – botqoq va toshqinlar; г – shaharlar.

G'arbiy Turk xoqonligida markazlashgan davlat bo'limgan. U o'nlab turkiy qabilalardan tashkil topgan uyushma-ittifoq bo'lib, ularning har qaysisini alohida xonlar idora qilganlar. Bu mulklarning o'z podshochalari bor edi. Ularning nomlari har

vohada har xil bo‘lgan. Jumladan, Buxoroda - buxorxudotlar, Chag‘aniyonda - chog‘anxudolar, Dabusiyada - dabusshohlar, Vardanzida - vardonxudotar, Toshkentda - tudunlar, Samarqand va Farg‘onada - ixshidlar, Osrushonada - afshiniylar, Xorazmda - xorazmshohlar, Toharistonda-malikshohlar, Iloqda - dehqonlar kabi. Dehqonlar bu hukmdorlarni kashovarzlar va qaram kishilardan bo‘lgan kadivarlar, yaxshi ta’lim olgan harbiy qo‘sishlar - chokarlar bilan quvvatlab turganlar.

Dunyoning boshqa qit’alaridan farqli o‘laroq, O‘rta Osiyo hududidagi dehqonchilikning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu yerda cheklanmagan mustabid sharqona ko‘rinishdagi markazlashgan kuchli hokimiyatga intilish ustuvor ahamiyat kasb etgan. «Tan-Shu» nomli Xitoy yilnomasi bergan ma’lumotlarga qaraganda Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo bo‘yida mustaqil to‘qqizta hokimlik bo‘lgan: Samarqand, Maymurg‘, Kesh, Naxshob, (Ishtxon, Kushoniya, Buxoro, Amul va Andxoy shular jumlasidandir. Ularning eng kattasi Samarqand hokimi edi. Kan hokimi mahalliy suloladan bo‘lgan. Sug‘diyona shohi, Xorazm va Choch hokimlari ma’lum darajada o‘z mustaqilliklarini saqlab qolganlar.

Sug‘diyona shohligi o‘sha davrda Panjikentdan Karmanagacha bo‘lgan uncha katta bo‘lmanan hududni egallar edi. Ichki boshqaruvda ba’zi erkinliklarini saqlab qolgan bo‘lsa-da, xoqonga doimo o‘lpon to‘lab turardi. Turk xoqonligihududida yashovchi aholi bug‘doy, arpa, sholi, tariq, beda va boshqa mahsulotlarni yetishtirish bilan band bo‘lgan. Eftaliylar davriga nisbatan sug‘orish tizimi bu davrda birmuncha ko‘payadi, Xorazm vohalarida esa aksincha, kamayadi. Aholi uzumchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanangan. Paxta, beda, tut daraxti ekishga va uy hayvonlarini boqishga katta e’tibor berilgan.

Tohariston aholisining asosiy qismi o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanardi. Asosan, g‘alla va dukkakli ekinlar, qisman sholi va paxta ekilardi. Tog‘oldi va tekslik joylarda esa bahorikorlik va uzumchilik rivoj topgan edi. Arxeologik topilmalar orasida pista, bodom, yongoq hamda o‘rik, shaftoli, uzum va olcha danaklari, shuningdek, qovun va tarvuz urug‘lari qayd etilgan. Shunga qaraganda, Toharistonda bog‘dorchilik va polizchilik keng rivojlangan. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlardan tashqari ot, xachir, tuya va eshaklar boqilgan. Ilk o‘rta asrlarda Toharistonda bo‘lgan sayyoohlar uning ikki o‘rkachli tuya va pastak otlarining uzoq, masofalarga qatnashda nihoyatda chidamli ekanini maqtab yozganlar. O‘rta Osiyo yerlarida esa bu davrda dehqonchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. O‘lkaning Farg‘ona, Xorazm va Zarafshon ko‘plab suv ayrig‘ichlar, kanallar, suv havzalari bunyod etilgan. Farg‘ona va Sug‘dda aholining bir qismi tog‘-kon ishlari bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. Bu yerlarda oltin, mis, temir eritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishslash yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningde, Iloqda qo‘rg‘oshin, kumush, Shahrizabizada esa qizil tuz qazib olingan.

XULOSA

Topilmalar qadimgi Markaziy osiyoliklar orasida gidrologiyaning murakkab tushunchasini va ularning imperiyalarini qo'llab-quvvatlashda suvni boshqarishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, tadqiqot mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy landshaftini shakllantirishda yer va suvning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Suv resurslarini boshqarish urbanizatsiya, savdo va madaniy almashinuvni osonlashtirib, Markaziy Osiyo tsivilizatsiyalarining gullab-yashnashiga hissa qo'shdi.

Eftallar davlati va turk xoqonligi Markaziy Osiyo tarixida yer va suv resurslaridan foydalanish ularning yer-suv munosabatlarini o'rganib chiqib, ushbu tadqiqot qadimiy gidrologik amaliyotlar va ularning mintaqadagi zamonaviy suv boshqaruviga ta'siri haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Kelajakdagagi tadqiqotlar qadimiy suv xo'jaligi texnikasining atrof-muhitga ta'sirini va ularning zamonaviy Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish uchun ahamiyatini yanada chuqurroq o'rganishi mumkin. Bundan tashqari, arxeologlar, tarixchilar va gidrologlar o'rtasidagi fanlararo hamkorlik o'tmishda va hozirgi zamonda insoniyat jamiyatlari va suv resurslari o'rtasidagi murakkab munosabatlar haqidagi tushunchamizni rivojlantirish uchun zarurdir.

ADABIYOTLAR:

1. Abduzuhur A. "Turkiy xalqlarning tillari va tarixi" .- T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 8-son, 1993-yil 19-fevral;
2. Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixining manbalari.-T.: O'qituvchi, 1991;
3. Mahmud Koshg'ariy. "Devonu lug'otit turk". – T.: Fan, 1963;
4. Golden P. B. Türk Halkları tarihine Giriş. Çev. O. Karatay. – Ankara: Karam, 2002. – S. 61–65, 88.
5. Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. – T.: Abulla Qodiriy, 1993;
6. Rahmonov N., B.Matboboyev. O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari. Toshkent, "Fan", 2006;
7. Yamada M. Hüna and Hepthal // Zinbun 23, 1989. – P. 79-113; Kurbanov A the Hepthalites: Archaeological and Historical Analysis ..., p. 24.
8. Soatova G. "O'zbekistonda O'rxun-Enasoy yofgorliklari tadqiqi" O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020-yil, 6-son;
9. Мұхаммаджонов А. Қуи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (қадимги даврдан йигирманчи асрнинг бошларигача). - Т., "Фан," 1972 йил, 374 бетлик.
10. Сайдов Б. Ўрта Осиёда ер - сув муносабатлари (қадимги даврдан хозирги кунгача). – Т., "Университет," 2001 йил. (Ўқув услубий қўлланма).
11. L.N. Gumilov "Qadimgi Turklar" asari, Toshkent, Uzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashiryoti 2007-y, 79-80-betlar.